

**TEXNOLOGIYA TA'LIMI PRAKTIKUMI FANNINI
O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI
QO'LLASH IMKONIYATLARI**

Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta'lism” kafedrasи o'qituvchisi

Bahronova Shaxlo Islom qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta'lism” kafedrasи o'qituvchisi

e-mail: baxronovashaxlo342@gmail.com

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta'lism” kafedrasи o'qituvchisi

Davlatova Nasiba Ubaydilloyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta'lism” yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada texnologiya ta'limi praktikumi fannini o'qitishda innovatsion ta'lism texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari ko'rsatilgan. Ta'limgagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limga ma'lum bir bosqichida talabalar erishgan ta'lism darajasini tahlil qilish orqali ta'lism qobiliyatlarini baholashni o'z ichiga oladi. Undan tashqari kompetensiya haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kompetensiya, dasturiy ta'lism vositalari, metod, bilim, ko'nikma, ta'lism, fan, ishlab chiqarish integratsiyasi, pedagogik, raqamli texnologiya.

Oliy ta'lism muassasalarida o'quv jarayonini innovatsion yangi ilmiy g'oyalar va konsepsiylar asosida takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisida tikuvchilikka oid kasbiy kompetentlikni, kreativligni talab qiladi, u esa o'z navbatida o'quv faoliyatiga ta'sir qiladi. Buning uchun avvalo, ta'lism jarayonida innovatsion muhitni tashkil qilish lozim.

Oliy ta'lism muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda texnologiya ta'limi praktikumi fanni

o‘qitish va o‘quv amaliyotlarini o‘tkazishda innovastion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ahamiyatlidir.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda talabalarda imkoniyatlar to‘g‘risidagi tushunchalarning tegishli amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida hosil qilishi bilan ham belgilanadi.

Biz ta’lim jarayonida “Innovatsiya”, “Novatsiya” va “Innovatsion jarayon” kabi tushunchalarining ta’riflari, kelib chiqishi va qo‘llanishi hamda mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va manbalar tahlilini keltiramiz.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

Talabaning dars davomida befarqi bo‘lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

Talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlash;

Talaba talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Pedagogik innovatsiyalar muammolarini tizimli va faoliyatli yondashuv nuqtai-nazaridan nazariy-metodologik darajada respublikamiz va xorijiy davlatlarda N.N.Azizzodjayeva, L.Ya.Kosals, N.I.Lapin, M.V.Klarin, M.S.Burgin, N.R.Yusufbekova kabi olimlar ilmiy izlanishlarida aks ettirilgan.

Xorijiy davlatlarda ta’limda innovatsiya nazariyasi bo‘yicha Yu.Vooglayd va boshqalarning tadqiqotlari ancha mashhurdir.

“Innovatsiya” umumilmiy tushunchasi tizimning faoliyat yurishida maqsadli o‘zgarish sifatida ta’riflanadi, shu bilan birga, keng ma’noda bu tizimning turli

sohalarida va elementlaridagi sifat yoki miqdoriy o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Jumladan, N.I.Lapin kiritilgan yangilikni yoki innovatsiyani yangi yoki allaqachon ma’lum bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj uchun yangi amaliy vositani(yangilikni) yaratish, tarqatish va foydalanishning kompleks jarayoni sifatida tavsiflaydi; shu bilan bir paytda bu uning hayotiy sikli amalga oshiriladigan ijtimoiy va moddiy sohadagi o‘zgarishlarning mazkur yangilik bilan qo‘shilishi jarayonidir.

Innovatsiyalarning vujudga kelishi yoki qo‘llanishi sohasida pedagogik jarayonning u yoki bu qismiga tegishliligi nuqtai-nazaridan quyidagicha amalga oshiriladi:

- ✓ ta’limni qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida(o‘quv rejalarini, dasturlarni o‘zgartirish, yangi o‘quv fanlarini kiritish integrativ kurslarni yaratish va boshqalar);
- ✓ ta’lim texnologiyalarida (texnologik yangiliklar);
- ✓ o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda;
- ✓ o‘quv muassasasining boshqaruв tizimida;
- ✓ umuman pedagogik jamoaning, xususan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ yo‘naltirilganligida;
- ✓ pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sirlashuvi tuzilmasida;
- ✓ bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining darsdan tashqari mustaqil faoliyatini tashkil etishda;
- ✓ oliy ta’limi muassasalarining keng tarmoqli rivojlanishida;
- ✓ bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tadqiqotchilik faoliyatlarining qaror topishida va h.k.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsiyalardan samarali foydalanish asosan uning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog‘liq.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari butun insoniyatning hayot tarzini va mehnat shaklini o‘zgartirib, uni o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga, malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda texnologiya ta’limi praktikumi fanni o‘qitishda “Tarmoqli rejalshtirish” texnologiyasini qo‘llash yaxshi samara beradi.

“Tarmoqli rejalshtirish” texnologiyasi dars jarayonini tashkil qilish amaliy jihatdan kreativ ijodkorlikni talab etadi. Bu holatni uning didaktik asosini belgilovchi funksiyalardan biri sifatida quyidagicha ta’rif berishganini ko‘rish mumkin: “O‘qish, o‘rganish, o‘qitish va o‘rgatish hamda tarbiya bu didaktikaning o‘zaro bog‘langan doimiy faoliyat ko‘rsatish funkstiyasi bo‘lib hisoblanadi”.

Tarmoqli rejalshtirish - bu o‘qitishning kompleks texnologik usuli bo‘lib, vaqtli va mantiqiy ketma-ketlik jihatdan loyihani rejalshtirishni, kompleks loyihaning

alohida sikllarini grafik ko'rsatish yordamida loyihani boshqarish hamda nazorat qilishni yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. А.Х. Содикова. (2021) КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific conference (14 September, 2021) - Copenhagen:2021. ISSUE 3 112 p. 109-112.
2. B. Sh. I., Dilmurodovna, R. D., Tohirovich, R. E., & Norjona, P. (2023). TEKNOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO 'LLASH METODIKASI. Ta'lim fidoyilari, 4(1), 191-197.
3. Dilmurodovna R. D. XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO 'ZLIK SAN'ATI MISOLIDA) //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.
4. Muxamedov Sh.M. "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit- modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –B.: 2022 y. – 155 b.
5. Sayfullaeva D.A. Ta'limda individual yondashuvning axamiyati // "Ilmiy tadqiqot va kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion hamkorlikni rivojlantirishning muammolari va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Buxoro, 2017. – В. 439-441.
6. Сайфуллаева, Д. (2021). BO 'LAJAK TEKNOLOGIYA FANI O 'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
7. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.
8. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.